

“IQTISODIY GEOGRAFIYA”
fanidan
DASTUR

Tuzuvchilar: dots. Sh.A. Azimov,
prof. A.A. Qayumov,
dots. S.O. Islomov,
k.o'q. I.F. Abdulqosimov.

Taqrizchilar: prof. Q.N. Abirqulov,
dots. S.S. Umarov.

Mazkur dastur ishlab chiqarish kuchlari va ularni tashkil etgan elementlarga oid xususiyatlar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari, iqtisodiyot tarmoqlari joylashishining qonuniyatlari, tamoyillari va omillarini, O'zbekiston Respublikasi, iqtisodiy rivojlangan davlatlar ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotini ifodalovchi jihatlar hamda yuqoridagi jarayonlar bilan aloqador bo'lgan muammolar to'g'risida ma'lumotlar berishni nazarda tutadi.

Настоящая программа предназначена обеспечить необходимой информацией о развитии производительных сил и их составляющих, закономерностях, принципах и факторах размещений отраслей материального производства и сферы услуг, об особенностях социально - экономического развития экономически развитых государств и проблемах, возникновения и углубления которых обусловлены вышеизложенными процессами.

This program predestinated to guarantee indispensable information about development productive forces and factors and their compose principles and factors of dispose of branches material manufacture and scope services about special economic progresses in the economical developed countries and problems outbreak and deepening which determined about mentioned.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (25 aprel 2003 yil 9 - sonli bayonnoma)

1. SO'Z BOSHI

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

O'quv fanining maqsadi - bakalavrlarni ishlab chiqarish kuchlari va ularni tashkil etuvchi elementlarga xos xususiyatlar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish soha hamda tarmoqlarini joylashtirishning qonuniyatlari, tamoyillari va omillari, O'zbekiston Respublikasi va iqtisodiy rivojlangan davlatlar ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotini ifodalovchi jihatlar hamda yuqoridagi jarayonlar bilan aloqador bo'lgan muammolar to'g'risida zaruriy bilimlar bilan ta'minlashdan iborat. O'quv fanining asosiy vazifasi jahonning ayrim hududlaridagi tabiiy, ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishni uddalay oladigan iqtisodchi mutaxassislarni shakllantirishga qaratilgan.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

“Iqtisodiy geografiya” kursi “Iqtisodiy nazariya”, “Xalq xo'jaligi tarixi”, “Milliy iqtisodiyot”, “O'zbekiston tarixi”, “Makroiqtisodiyot”, “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar”, “Statistika”, “Ekologiya”, “Zamonaviy tabiiyot bilimlari kontsepsiyalari” va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'langandir.

O'quv fani bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar

“Iqtisodiy geografiya” fani bo'yicha bakalavr quyidagilar to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lishi kerak:

- - “Iqtisodiy geografiya”ning nazariy - metodologik asoslari;
- - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning qonuniyatlari, tamoyillari va omillari;
- - ishlab chiqarish bilan tabiiy muhit o'rtasidagi hududiy aloqalar;
- - xalqaro mehnat taqsimoti va integratsiya jarayonlari;
- - O'zbekiston Respublikasining tabiati, aholisi va xo'jaligiga xos xususiyatlar;
- - Iqtisodiy rivojlangan davlatlarning ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti bilan aloqador muammolar.

“Iqtisodiy geografiya” fani bo'yicha bakalavr quyidagi global muammolar mohiyatini bilishi lozim:

- - iqtisodiy - geografik tadqiqotlar, iqtisodiy rayonlashtirishni amalga oshirish bo'yicha usullarni;

- - hududiy ijtimoiy - iqtisodiy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishini aks ettiruvchi jarayonlarni; - mintaqalarning tabiiy va inson resurslaridan oqilona foydalanish yo'llarini.
- Bakalavr quyidagilarni uddalay olishi lozim:
- - ayrim mintaqalar va mamlakatlarning iqtisodiy - geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslarini baholashni;
- - statistik, demografik, kartografik va boshqa turdagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va baholashni;
- - matnni tavsiflash orqali xulosalar qilish va takliflar tayyorlashni.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga bo'lgan talablar

Amaliy (seminar) mashg'ulotlar bakalavrlarda turli mazmunga ega geografik kartalar bilan ishlashni, jadval va chizmalarni o'qiy olish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilishi lozim. Undan tashqari amaliy (seminar) mashg'ulotlar talabalarning ma'ruzadan olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar

Oliy ta'limning DTS ga binoan mazkur kursga 108 soatga teng hajmda soat ajratilgan. Uning 36 soati (33,3%) ma'ruza, 36 soati (33,4%) amaliy mashg'ulotlar va qolgan 36 soati (33,3%) mustaqil ta'limdan iboratdir.

Auditoriya mashg'uloti turlari soatlar hajmi bo'yicha oqilona taqsimlangan.

Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Talabalar bilimi reyting tizimi orqali baholanadi. Reyting tizimi bo'yicha o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori uchta: joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazoratdan iborat bo'lib, ular test olish, yozma ish va oqzaki so'rov asosida amalga oshiriladi.

Har bir joriy nazoratdan talabalar eng ko'pi 17,5 % dan jami 35 % (25,2 ball), har bir oraliq baxolashda 17,5 % dan jami 35 % (25,2 ball), yakuniy baholashdan 30 % (21,6 ball) jami 72 ball to'plashi mumkin. Talabalar bilimni baholash uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan va Toshkent Moliya instituti ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan uslubiy ko'rsatmalardan foydalaniladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarni qo'llash

"Iqtisodiy geografiya" kursini o'tishda ilg'or texnologiyaning tarkibiy qismlari bo'lmish: a) o'quv maqsadi va vazifalari katalogini ishlab chiqish; b) o'quv maqsadi

va vazifalarini bajarishni nazorat (test, yozma ish) qilish; v) o'quv maqsadiga erishish, rejalashtirilgan maqsadni baholash kabilardan kelib chiqish tavsiya etiladi.

Mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida o'quv ko'rgazma quollaridan, kompyuter, informatsion vositalardan foydalangan holda zamonaviy bilimlar mustahkamlab boriladi.

Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Fan bo'yicha ishchi o'quv dasturini tayyorlashda namunaviy dasturning so'z boshida keltirilgan uslubiy ko'rsatmalarga amal qilinadi. Har bir ko'rsatilgan ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mavzulari izchil bo'lishi lozim. Ularda mavzu rejasi, unga oid adabiyotlar va ko'rgazmali quollar ro'yxati berilishi kerak.

Shuningdek, mazkur fan bo'yicha ishchi o'quv dasturini tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berilishi kerak:

1. Na'munaviy dasturda ko'rsatilgan majburiy mavzular, albatta, ishchi dasturiga kiritilishi kerak;
2. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning mavzulari na'munaviy dastur asosida tuzilsa ham, undagi mavzular ketma - ketligi o'zgarishi mumkin, hamda ayrim majburiy bo'lmagan mavzular mustaqil ta'limga o'tkazilishi mumkin;
3. Dasturdagi mustaqil ta'lim uchun mavzular ishchi dasturida ham ko'rsatilishi kerak;
4. Ishchi o'quv dasturi har yili tuziladi. Shuning uchun undagi mustaqil ta'lim mavzulari yangi mavzular bilan to'ldirib beriladi, adabiyotlar ro'yxati, informatsion - texnik vositalar ro'yxati o'zgarib boradi.

2. FAN DASTURI

Iqtisodiy geografiyaning ob'ekti, predmeti va mazmuni, uning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari

Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy yo'nalishlari: tarmoq va mamlakatshunoslik, hududiy va konstruktiv yo'nalishlari, differentsiyalashuvi va integratsiyalashuvi. Asosiy ilmiy kontseptsiyalar va ularning mazmuni: iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari, energiya ishlab chiqarish tsikllari, iqtisodiy geografik o'rin va boshqalar. *Iqtisodiy - geografik va kompleks geografik tadqiqotlar.*

Iqtisodiy geografiyaning geografik va iqtisodiy fanlar tizimidagi o'rni. Uning iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot, regional iqtisod, tarmoqlar iqtisodi, tabiiy geografiya, ekologiya, kartografiya, demografiya, iqtisodiy tarix va boshqa fanlar bilan aloqalari.

Iqtisodiy geografiyaning tarmoqlarga bo'linishi: umumiy, tarmoqlar, tabiiy resurs, xizmat ko'rsatish geografiyalari. Aholi geografiyasi. Siyosiy geografiya. Iqtisodiy kartografiya va boshqalar.

Iqtisodiy geografiya fanining tadqiqot uslublari. Umumiy, geografik, iqtisodiy uslublar va yo'nalishlar. Iqtisodiy - geografik tahlil, iqtisodiy - statistik tahlil, taqqoslash, guruhlash, iqtisodiy - matematik modellashtirish, iqtisodiy - geografik bashorat qilish (prognozlash), kartografik uslublar. Hududiy tizimlardagi tarmoqlar tuzilishlarni tadqiq etish.

Oliy malakali iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda iqtisodiy geografiyaning ahamiyati

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida iqtisodiy geografiya fanining asosiy vazifalari. Iqtisodchi mutaxassislarning geografik fikrlashi va tafakkurini kuchaytirish. *Iqtisodiyotni rivojlantirishning hududiy (mintaqaviy) muammolari.* Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni takomillashtirishda uning ahamiyatini oshib borishi.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning omillari va printsiplari

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillari to'g'risida tushuncha. Ishlab chiqarishni joylashtirishning bozor, texnik - iqtisodiy, tabiiy, tarixiy, ijtimoiy - siyosiy omillari.

Ko'p aspektli va kompleks (majmuali) omillar, dinamiklik, inertsiyalilik, hududiylik, ijtimoiy (aholi va mehnat resurslari)lik, ularning ta'rifi. Ishlab chiqarish kuchlariga ta'sir ko'rsatadigan omillar (ishchi kuchi, xom ashyo, yoqilg'i va

energiya, kapitalning mavjudligi, tashish baholari (tariflar), infrastrukturalar). Xom ashyo, yoqilg'i - energetika, mehnat resurslari, tayyor mahsulot iste'moli rayonlarining sanoatning joylashishiga ta'siri darajasi. Qishloq xo'jaligi, rekreatsiya, infrastruktura va boshqalarning joylashishiga ta'sir etadigan omillar.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari. Tamoyillarning tarixan o'zgaruvchanligi. Tarmoqlar va regionlar rivojlanish kontseptsiyasida ichki va tashqi raqobat muhitini, bozor talablari va takliflarini hisobga olgan holda ishlab chiqarishni joylashtirish.

Yangi iqtisodiy sharoitda regional ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishni takomillashtirish muammolari.

Hozirgi zamon dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi

Dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi to'g'risida tushuncha. Dunyo siyosiy xaritasi – tarixiy davrlarning ko'zgusi.

“Davlat hududi”, “hududiy suvlar”, “ichki suvlar”, “davlat chegarasi”, “suverenitet”, “siyosiy maqom”, “idora boshqaruv shakllari”, “suveren”, “unitar, federativ davlat”, “xalqaro iqtisodiy munosabatlar”, “erkin iqtisodiy zona (mintaqa)” tushunchalarining ma'no va mazmuni.

Dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi shakllanishining asosiy bosqichlari. Tarixiy geografik yondashuv hozirgi zamon muammolarini tushunishning kaliti.

Qadimgi dunyo, o'rta asrlardagi dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi. Turon - Turkiston zamini xalqlarining Osiyo va Evropa bilan aloqalari, ularning dunyoni geografik bilish chegaralarining kengligi. Buyuk Ipak yo'li va uning ahamiyati. XIV asr boshida Temur davlati. Temuriylar davlatining inqirozi, uning sababi va oqibatlari.

Buyuk geografik kashfiyotlar va Evropa mustamlakachilik bosqichining boshlanishi. Mustamlakachilik imperiyalarining paydo bo'lishi. Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, Rossiya imperiyalari va boshqalar. XVI - XIX asrda dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi.

Birinchi jahon urushi arafasida va undan keyin dunyo siyosiy xaritasida yuz bergan o'zgarishlar, *jahon bozori va jahon xo'jaligining shakllanishi.* Oktyabr to'ntarishi va dunyoning ikki tizimga bo'linishi.

Ikkinchi jahon urushi va dunyo siyosiy xaritasida yuz bergan o'zgarishlar. Sotsializmning jahon tizimiga aylanishi va uning oqibatlari. Imperializm mustamlakachilik tizimining emirilishi.

SSSR va sotsialistik tizimning parchalanishi va yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi.

Xalqaro munosabatlar yangi davrining boshlanishi va dunyo siyosiy xaritasi. Munosabatlarni sog'lomlashtirish, qurolsizlanish va hamkorlik. Evropa muammolari. "Umumevropa uyi" kontsepsiyasi. Dunyoning regional muammolari. Regional mojarolar, ularning sabablari, oqibatlari, ularni tinch yo'l bilan hal etish muammolari.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar va dunyoning iqtisodiy xaritasi. "Shimol - Janub" munosabatlari. BMTning "Yangi xalqaro iqtisodiy tartib" dasturi. "Sharq - G'arb" munosabatlari. Dunyo mamlakatlarining tashqi iqtisodiy aloqalarida radikal islohotlarini amalga oshirish. Erkin iqtisodiy zonalarini barpo etish. Dunyo mamlakatlari iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirish muammolari.

Hozirgi zamon dunyo mamlakatlari tipologiyasi. Dunyo mamlakatlarini siyosiy mezonlar, hududining kattaligi, aholisining soni bo'yicha klassifikatsiyasi.

Dunyo mamlakatlarini miqdoriy mezonlar bo'yicha guruhlash. Dunyoning suveren mamlakatlari

Dunyo mamlakatlarining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish darajasi tipologiyasi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar va ularning guruhlari. "Katta - sakkizlik" mamlakatlari. Ularga nisbatan kichikroq mamlakatlar. "Ko'chirilgan kapitalizm" mamlakatlari. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) a'zolari, Boltiqbo'yi, Sharqiy Evropa mamlakatlari (sobiq sotsialistik mamlakatlar). Rivojlanayotgan mamlakatlar va ularning guruhlari. Yangi industrial mamlakatlar. Neft eksport qiluvchi mamlakatlar. Eng kam rivojlangan mamlakatlar.

Dunyo mamlakatlarning davlat tuzumi. Respublika va monarxiya boshqaruv shakllari. Ma'muriy - hududiy tuzilishning asosiy shakllari. Unitar va federativ davlatlar.

Dunyo aholisi geografiyasi

Aholi ro'yxati, aholining qayta tiklanishi, "demografik portlash", "demografik bo'hron (krizis)", "aholi ortiqchaligi", "iqtisodiy faol aholi", "etnos", "aholi migratsiyasi", "aholi yashaydigan joy tizimlari", "urbanizatsiya", "demografik siyosat" tushunchalarining mazmuni.

XX asrda aholi sonining o'sishi. Dunyo mamlakatlarining demografik siyosati.

Materiklar va mamlakatlar bo'yicha aholining joylashishi va zichligi notekisligining sabab va oqibatlarini. Tashqi va ichki migratsiya. Migratsiya siyosati.

Dunyo aholisining tarkibi. Jinsiy tarkibi. Turli mamlakatlarda erkak va ayollar nisbati. Aholining yosh tarkibi va uning mehnat resurslariga ta'siri. Dunyo aholisining milliy va etnik tarkibi. Bir va ko'p millatli davlatlar. Xalqlarning irqiga bo'linishi. Aholining diniy tarkibi. Eng ko'p tarqalgan (xristianlik, islom dini va buddizm) va boshqa dinlar geografiyasi.

Dunyoning shahar va qishloq aholisi. Urbanizatsiya. Yuqori, o'rta va kam urbanizatsiyalashgan mamlakatlar. Katta shaharlar sonining ko'payishi, shahar aglomeratsiyasi. Megapolis. Ularni boshqarish muammolari. Qishloq aholisi. Qishloqlar va ularning funktsional turlari. Aholi sonini o'sishini bashoratlashning ahamiyati va oziq - ovqat dasturlari echimidagi muammolar.

Dunyo xo'jaligi geografiyasi

Dunyo xo'jaligining shakllanishi va uning asosiy bosqichlari.

Xalqaro mehnat taqsimoti. Xalqaro ixtisoslashuv. Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Dunyo mamlakatlarining eng muhim iqtisodiy guruhlarini.

Ilmiy - texnika taraqqiyotining dunyo xo'jaligiga ta'siri. Fanning bevosita jamiyatning ishlab chiqarish kuchiga aylanishi. ITT va yangi texnologiyalarning hududiy tuzilmalariga ta'siri. Yalpi milliy mahsulot(YaMM)ning turli mamlakatlardagi ko'rsatkichlari.

Dunyo xo'jaligi tuzilmasi. Dunyo xo'jaligi tarmoqlari geografiyasi. Sanoat - moddiy ishlab chiqarishning etakchi tarmog'i. qilg'i - energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, engil va oziq - ovqat tarmoqlarining sanoatdagi o'rni va ahamiyati.

Dunyo qishloq xo'jaligi geografiyasi. Turli mamlakatlar qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari va turlari. Baliqchilik. Dunyoning oziq - ovqat resurslari va oziq - ovqat muammolari.

Dengiz va okeanlarning resurs salohiyati va undan foydalanish. Dengiz akvakulturasini (morikultura). Okean resurslarining notekis o'zlashtirilishi, dengiz muhiti ifloslanishining kuchayishi. Okeanlardan siyosiy va harbiy faoliyat maydoni

sifatida foydalanishning kuchayishi. Okean resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanish va suv muhitini muhofaza qilish.

Dunyo sanoati geografiyasi

Sanoat - moddiy ishlab chiqarishning etakchi tarmog'i uni hududiy tashkil qilish va rivojlantirish xususiyatlari. Sanoatni hududiy ishlab chiqarish tuzilishiga ta'sir etuvchi tabiiy - iqtisodiy, siyosiy, texnologik omillar. *Hozirgi dunyoning turli guruh mamlakatlarida sanoatning rivojlanish darajasi.* Dunyo sanoatining etakchi tarmoqlari geografiyasi. Dunyo bo'yicha yoqilg'i - energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, engil va oziq - ovqat sanoatlarining joylashishi va rivojlanishidagi asosiy hususiyatlari.

Dunyo qishloq xo'jaligi geografiyasi

Qishloq xo'jaligining joylashish va rivojlanish hususiyatlari. Dunyoning er resurslari va uning tuzilishi. Dunyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etishning shakllari. ITTning qishloq xo'jaligini joylashish va rivojlanishiga hamda agrosanoat majmualariga ta'siri. Agrar munosabatlar va agrobiznesning rivojlanishi. Dunyo dehqonchiligi va chorvachiligi etakchi tarmoqlarning joylanishi. Daryo va dengiz baliqchiligining rivojlanishi.

Dunyoning turli mamlakat va regionlarida oziq - ovqat muammolari va ularning echimi.

Dunyo transporti geografiyasi

Transportning asosiy turlari, dunyo ahamiyatidagi eng muhim daryo, dengiz, va havo yo'llari. *Hududiy transport tizimlari.* "Buyuk Ipak yo'lining" qayta tiklanishi va ta'mirlanishining ahamiyati. Kaspiy va Qora dengizlararo transport aloqalari rivojlanishining istiqbollari. Ushbu yo'nalishning sharq va g'arb o'rtasida aloqalarni rivojlantirish hamda chuqurlashtirishning Markaziy Osiyo mamlakatlari va O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati.

Eng muhim xalqaro iqtisodiy, ilmiy - texnik, savdo aloqalari, kredit - moliyaviy, turli xizmatlar va xalqaro turistik munosabatlarning rivojlanishi.

Dunyoning regional tavsifi

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati. Xo'jalikning hududiy tuzilishi. Regional siyosatning asosiy yo'nalishlari. *Dunyoning eng yirik transmilliy korporatsiyalari.* Rivojlanayotgan mamlakatlarning tabiiy - mineral xom ashyo

salohiyati. Eksport ixtisosligi bo'yicha rayon xo'jaliklarining tarmoq va hududiy tuzilishi. Rivojlanishning hozirgi zamon bosqichi yutuqlari va qiyinchiliklari.

AQShning iqtisodiy - geografik tavsifi

AQSh dunyoning iqtisodiy jihatdan eng kuchli rivojlangan mamlakati. Hududiy chegaralarining shakllanishi, uning qulayliklari. Davlat tuzumi, siyosiy xaritasi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Er yuzasi, tuproq, iqlim sharoitlari, suv resurslari va ularning xo'jalik bahosi. Eng muhim foydali qazilmalarning zahiralari va joylashishi, ularning AQSh taraqqiyotidagi roli.

Aholisi. Aholining shakllanish omillari. Emigratsiyani aholining o'sishi va tarkibiga, amerika millatining shakllanishiga ta'siri. Aholining milliy tarkibi va asosiy etnik guruhlar. Aholining zichligi va joylashish xususiyatlari. Urbanizatsiya xususiyatlari va muammolari. Shaharlarning Shimoliy Amerika turlari. Yirik shaharlar va aglomeratsiyalar, megapolislar. Suburbanizatsiyaning shahar atrofi zonalar, yo'ldosh shaharlarning o'sish jarayoni va uning tobora ustivorligi. Noishlab chiqarish sohalarida aholi hissasining o'sib borishi. Aholi bandligi muammolari.

Xo'jaligining umumiy ta'rifi. Rivojlanish xususiyatlari. AQShning dunyo ishlab chiqarish, tovar va kapital eksportidagi hissasi.

Sanoati. Sanoatning yuqori darajada yangi texnika va texnologiya bilan ta'minlanganligi, uning resurslarni tejash va tabiatni muhofaza qilishdagi yuksak vazifalari. Yirik sanoat rayonlari va mintaqalariga tavsif.

Qishloq xo'jaligi. Fermerlar ixtisoslashuvi va turlari. Agrosanoat majmualarining (ASM) shakllanishi va rivojlanishi, agrobiznes. Bosqichma - bosqich ixtisoslashuvning rivojlanganligi. Asosiy qishloq xo'jalik rayonlari va mintaqalari (makkajo'xori, paxta, bug'doy va boshqalar).

Transporti. Rivojlanishning darajasi, transport tarmoqlari konfiguratsiyasi. Asosiy transport magistrallari va tugunlari. Quvur transporti. Buyuk ko'llar va Missisipi daryosi suv yo'llarining roli, asosiy portlar. Havo transporti.

Tashqi iqtisodiy aloqalar. Eksport va importning tuzilishi va geografik taqsimlanishi. AQShning chet mamlakatlardagi kapital qo'yilmalarining turlari, tarmoqlari va davlatlar bo'yicha taqsimlanishi.

Turizm va dam olish. Tabiiy - rekreatsiya resurslari. Xalqaro va ichki turizm, mehmon qabul qilish industriyasi. Dengiz va ko'l bo'yi hamda tog' turizmining asosiy rayonlari.

Atrof - muhit muhofazasi va ekologik muammolar. Ekologik muammolarning keskinlashuv sabablari va ularni echish yo'llari.

Iqtisodiy rayonlari. Asosiy iqtisodiy rayonlari. Shimoli - Sharq hozirgi eng muhim rivojlangan rayon. Uning rivojlanish xususiyatlari. Yirik shaharlari.

Janub. Tabiiy resurslarga boyligi. Aholisi. Sanoat, paxtachilik va xo'jaligining boshqa tarmoqlarining joylashuvi va tuzilishidagi siljishlari, rivojlanish xususiyatlari. Janubning yirik shaharlari: Xyuston, Yangi Orlean, Dallas, Atlanta, Birmingem.

Farb AQShning yosh rayoni. Kaliforniya, Tinch okean, Shimoli - g'arb. Tog'li shtatlar. Los - Anjeles, San - Frantsisko, Sietl va boshqa shaharlar.

Yangi shtatlar. Alyaska va Gavayi, ular iqtisodiyoti tuzilishining xususiyatlari, strategik ahamiyati.

AQShning Karib dengizi va Tinch okean mintaqasidagi tashqi mustamlakalari. Ularning aholisi, resurslari, iqtisodiy va strategik ahamiyati.

Germaniya Federativ Respublikasining iqtisodiy - geografik tavsifi

GFRning geografik o'rni, hududiy chegaralari. GFR - Federativ davlat. Yagona Germaniyaning paydo bo'lishi. Davlat tuzumi. Dunyo iqtisodiyotida GFRning o'rni.

Aholisi. Aholining soni va tabiiy harakati. Aholi dinamikasi va tarkibi. Ko'chib borganlar oqimi va assimilyatsiyasi, emigratsiya va immigratsiya. Aholi joylashishi va urbanizatsiya xususiyatlari. Reyn - Rur aglomeratsiyasi.

Sanoati. Tabiiy resurslari. Sanoatning asosiy tarmoqlari. Og'ir sanoatning yuqori salmog'i. Mashinasozlikning muhim roli. GFR - dunyoning eng "kimyolashgan" mamlakati. Issiqlik elektrostantsiyalarning rivojlanganligi. Asosiy sanoat rayonlari.

Qishloq xo'jaligi. Asosiy tarmoqlari. Sut, go'sht - sut yo'nalishidagi chorvachilik. Don xo'jaligi. Yuqori mahsuldor ixtisoslashgan ishlab chiqarish turlarining ustunligi.

Transporti. Transport tarmoqlarining murakkab konfiguratsiyasi. Avtomobil va dengiz transportining etakchi ahamiyati. Daryo transporti (Reyn). Duysburg - dunyodagi eng yirik daryo yo'li. Yirik transport tugunlari. Gamburg, Berlin - sanoati majmualari.

Turizm va dam olish. GFR – xalqaro turizmning yirik mamlakati. Atrof - muhit muhofazasi va ekologik muammolar. Tabiat muhofazasi va ekologik muammolarning keskinlashuvi. Atrof - muhitni muhofaza qilishning faol tadbirlari. Aholidan muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydonining kengaytirilishi.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Tashqi savdoning tovar tuzilishi va geografiyasi. Kapital eksporti.

Iqtisodiy rayonlari. Rayonlarning shakllanishi xususiyatlari va rayonlararo asosiy tafovutlar.

Reyn - Vestfal industrial rayoni - og'ir sanoatning asosiy rayoni. Shimoliy industrial - agrar rayoni.

GFRning "Dengiz darvozasi". Kil kanali. Gamburg, Gannover, Bremen.

Reyn bo'yi Janubi - g'arbiy industrial - agrar rayoni. Kimyo sanoatining alohida ahamiyati. Reyn daryosining roli. Universitetli shaharlar.

Saar industrial rayoni. Ko'mir qazish. Tuzatish diversifikatsiyasi. Frantsiya bilan aloqalari.

Bavariya industrial - agrar rayoni. Harbiy sanoat monopoliyalarining alohida roli. Qishloq xo'jalik tavsifi. Katolik cherkovining roli. Myunxen, Nyurenberg shaharlari.

Sharqiy Germaniya rayonlari:

1. Shimoliy (Dengiz bo'yi) - Rostok.
2. Markaziy - Berlin.
3. Markaziy - Elba – Leyptsig - Magdeburg, Galle.
4. Janubiy (sobiq Karl - Marks - Shtadt).
5. Janubi - Sharqiy - Drezden.

Yaponiyaning iqtisodiy - geografik tavsifi

Yaponiya hozirgi dunyoning uchta eng muhim markazining iqtisodiy peshqadamlaridan biridir. Yaponiyaning dunyo iqtisodiyotidagi o'rni.

Iqtisodiy - geografik o'rni va maydoni. Yaponiya - arxipelag mamlakati, orol davlat.

Aholisi. Aholisining tabiiy harakati, milliy tarkibi. Joylashish xususiyatlari. Yaponiya - yuqori madaniyat va yoppasiga savodxon mamlakat. Urbanizatsiya xarakteri. Yirik shahar aglomeratsiyalari. Tokio, Osaka, Nagoya. Tokaydo megapolisining paydo bo'lishi. Davlat demografik siyosati. Asosiy dinlar.

Rivojlanishining tarixiy - geografik xususiyatlari. Yaponiya - qadimiy davlat. Yaponiya dunyoning boshqa hududlaridan uzoq davr ajrab qolganligi va uning oqibatlari. Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiya iqtisodiyotidagi siljishlar. Fan - texnika kashfiyotlarini tezda joriy etish, ishchilar maoshini past miqdorining ahamiyati.

Ilmiy tadqiqot va ishlov berish sanoatiga katta miqdorda kapital ajratish - iqtisodiy o'sishning muhim omili. Yaponiya ta'lim tizimining ahamiyati.

Sanoati - o'zining tabiiy resurslarining deyarli yo'qligi. Energiya va metallni ko'p talab qiladigan ishlab chiqarishning cheklanganligi, fanga asoslangan eng yangi tarmoqlarga e'tibor, noan'anaviy energiya manbalaridan ("Quyosh yorug'lik" dasturi) foydalanish.

Texnopolislarning shakllanishi - fan shaharlari va ilmga asoslangan ishlab chiqarish.

Sanoatning eng muhim tarmoqlari, ishlab chiqarish ko'lami, texnik saviyasi va monopolizatsiya darajasi. Mikroelektronika, robot texnikasi, yangi materiallar, kosmik texnikaga materiallar ishlab chiqarish, bioindustriya. Energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, to'qimachilik sanoatlari. Sanoat rayonlari va asosiy sanoat markazlari. Sanoatni eksportga yo'naltirilganlik darajasi.

Qishloq xo'jaligi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng qishloq xo'jaligini tubdan qayta qurish. Agrar islohot, agrar tizimdagi o'zgarishlar. Agrotexnika xususiyatlari. Qishloq xo'jalik tarkibi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning mahsuldorligi.

Baliqchilik - yapon xo'jaligining an'anaviy tarmog'i. Morikultura. Yaponlar oziq - ovqati tarkibida baliq va dengiz mahsulotlarining ahamiyati.

Transporti. Rivojlanishning yuqori darajasi. Transport turlari. Yaponiya transportining asosiy yo'li. Bosh transport yo'llari (magistrallar) va muhim portlar. Tokio sanoati transport majmuasi.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Tashqi savdoning hajmi, mahsulot tarkibi va geografik yo'nalishlari. Tashqi bozor uchun kurash. Tashqariga kapital chiqarish va boshqa mamlakatlar iqtisodiyotiga yapon kapitalining kirib borishi.

Turizm va dam olish. Turistik - rekreatsiya rayonlarining turlari.

Tinch okeani mintaqasi. ("old qismi" yoki "quyoshli" qismi) - Yaponiyaning bosh yadrosi. Chekka zona ("orqa" yoki "soya" qismi). Davlatning regional siyosati. Chekka zonalarni iqtisodiy va ekologik toza rivojlantirishni rag'batlantirish.

Atrof - muhit muhofazasi va ekologik muammolari. Milliy tabiat bog'lari. Markaziy Xonsyu. Ichki dengiz iqtisodiy rayonlari. Shimoliy va janubiy iqtisodiy rayonlari. Tokio, Osaka, Nagoya va boshqa yirik shaharlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'sligi (MDH) mamlakatlariga umumiy ta'rif

